



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
NAVOIY VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI BOSHIG‘INING
BUYRUG‘I

21.07.2025

169-um-son

Hay'at qarori ijrosini ta'minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2025-yil 9-iyuldagi 8/25-son Hay’at majlisi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2022-yil 12-iyuldagi 147-um-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Navoiy viloyat adliya boshqarmasi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq,

BUYURAMAN:

1. Navoiy viloyat adliya boshqarmasi Hay’atining 2025-yil 18-iyuldagi 3/25-son qaroriga asosan adliya boshqarmasi hamda tuman (shahar) adliya bo‘limlarining 2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo‘ljallangan ish rejalari tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

2. Rejalashtirish va samaradorlikni baholash bo‘limi (Sh.Abduraxmonov) Hay’at qarori bilan tasdiqlangan ish rejani boshqarmaning mas’ul xodimlari, tuman (shahar) adliya bo‘limlari (*yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari, davlat xizmatlari markazlari va FHDY organlari*) va boshqarma huzuridagi idoraviy notarial arxivga ijro uchun yuborsin.

3. Boshqarma mas’ul xodimlari, tuman (shahar) adliya bo‘limlari (*yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari, davlat xizmatlari markazlari va FHDY organlari*) hamda boshqarma huzuridagi idoraviy notarial arxiv xodimlari Hay’at qarori bilan tasdiqlangan ish rejada belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlasin hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan belgilangan muddatlarda axborot taqdim etib borsin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Asos: Navoiy viloyat adliya boshqarmasi Hay’atining 2025-yil 18-iyuldagi 3/25-son qarori.

Boshqarma boshlig'i



U.ABDULLAYEV

Navoiy viloyati



NAVOIY VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI HAY'ATI MAJLISINING BAYONNOMASI

2025-yil 18-iyul

3/25-son

Navoiy shahri

Raislik qildi:

U.Abdullayev - boshqarma boshlig'i

Hay'at a'zolari:

D.Xusanov, Sh.Abduraxmonov, U.Xatamov,
F.Alxamov, Sh.Ravshanov.

Qatnashdilar:

Adliya boshqarmasining sho'ba boshliqlari va mas'ul xodimlari, tuman (shahar) adliya bo'limlari boshliqlari va xodimlari, tuman (shahar) yuridik xizmat ko'rsatish markazlari boshliqlari va xodimlari, davlat xizmatlari markazlari direktorlari va xodimlari, FXDY mudir(a)lari va xodimlari.

Hay'at kotibi:

M.Raxmonov.

K u n t a r t i b i:

Navoiy viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi loyihasi muhokamasi to'g'risida.

(D.Xusanov, Sh.Abduraxmonov, U.Xatamov, F.Alxamov, Sh.Ravshanov)

Majlisning borishi:

Kun tartibidagi masala hay'at maslisida atroflicha muhokama qilindi.

Ish reja loyihalari yuzasidan hay'at a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Bunga ko'ra, Navoiy viloyat adliya boshqarmasining hamda tuman (shahar) adliya bo'limlarining 2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi loyihasida nazarda tutilgan tadbirlarning muddatlari aniq belgilanib, maqsadga muvofiq emas deb topilgan tadbirlar chiqarib tashlandi.

Hay'at raisi loyihada belgilangan tadbirlarning ijrosiga mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linma rahbarlaridan ish reja matni bo'yicha va unda belgilangan

vazifalarni muddatida ijro eta olishligini, shuningdek ish reja loyihasi bo'yicha taklif va mulohazalar mavjud yoki mavjud emasligini so'radi.

Loyihada belgilangan tadbirlar uchun mas'ul ijrochilar barcha tadbirlarni o'z vaqtida va to'liq bajara olishlari hamda taklif va mulohazalar yo'qligini bildirdilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Navoiy viloyat adliya boshqarmasi hay'ati

Q A R O R Q I L A D I:

1. Navoiy viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi 1-ilovaga muvofiq, tuman (shahar) adliya bo'limlarining 2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tegishlicha boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari va Rejalashtirish va nazorat-tahlil sho'basi boshlig'i zimmlariga yuklansin.

**Komissiya raisi
Boshqarma boshlig'i**



U. Abdullayev

Kelishildi:

Sho'ba boshlig'i



Sh. Abduraxmonov

**Boshqarma boshlig'i
o'rinbosari**



D. Xusanov

**Navoiy viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo'ljallangan
ISH REJASI**

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
I. ISHLARNI TASHKILLASHTIRISH, ADLIYA ORGANLARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH SOHASIDA						
1.	Navoiy viloyat adliya boshqarmasi va uning tizimidagi idoralar tomonidan 2025-yil I yarim yillik va 9 oyi davomida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va kelgusidagi vazifalarni belgilash. Natijasini hay'at majlisida muhokama qilish.	iyul-avgust, oktabr-noyabr	Sh.Abduraxmonov, boshqarma tarkibiy bo'linmalari rahbarlari	Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-oktabrdagi 855-son qaroriga ko'ra hay'at majlisi har chorakda o'tkazilib, unda asosiy yo'nalishlariga oid masalalar muhokama etiladi va kelgusidagi vazifalar belgilanadi.	Boshqarma va uning tizimidagi idoralar faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash hamda tizimli qonun buzilish holatlarini bartaraf etish.	1
II. HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTINI O'RGANISH VA METODIK TA'MINLASH, INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH, PREZIDENT HUJJATLARI IJROSINI NAZORAT QILISH SOHASIDA						
2. (14)	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilishga qaratilgan "huquqiy ko'mak" aksiyasini o'tkazish. Natijasi bo'yicha Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	avgust	M.Umerzakov, S.Xusanov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga nisbatan qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va kafolatlarning qo'llanmaslik holatlari bo'yicha tegishli murojaatlar kelib tushmoqda. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo'nalishida "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish orqali ularning huquqlari kafolatlari	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo'nalishida qonunchilik hujjatlari ijrosi holati va amaliyoti o'rganiladi, muammosi mavjud shaxslarga amaliy ko'mak ko'rsatiladi hamda aniqlangan muammo va kamchiliklar bartaraf etilib, sohani takomillashtirishga	3

No	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
				ta’minlanishi kuchaytiriladi.	qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.	
3. (16)	O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi O‘rmon xo‘jaligi agentligi Navoiy viloyat va tuman (shahar) hududiy tuzilmalari faoliyatida o‘rganish o‘tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo‘llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo‘nalishlari; ma’muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko‘rsatish holati; tartibga solish ta’sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyati; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ‘ibotni amalga oshirilishini o‘rganish. Agentlikning funksiyalarini biznes jarayonlarini reinjining qilish (BPR)	avgust-sentabr	J.Ravshanov, A.Tuxtayev, M.Umerzakov, J.Muhammadiyev, S.Xusanov, A.Saidov, A.Raxmonberdiyev, tuman (shahar) adliya bo‘limlari	Bugungi kunda o‘rmonlarning kamayib borishi va tabiiy tiklanish sur’atining pastligi, davlat o‘rmon fondi yerlarida noqonuniy kesish, o‘rmon xo‘jaligi ko‘chatzorlarining yetarli rivojlanmaslik holatlari mavjud. 2030-yilgacha 1,7 mln gektar yerda o‘rmonzorlar tashkil etish bo‘yicha Prezident qarori mavjud bo‘lsa-da, ayrim hududlarda rejalashtirilgan ishlar amalga oshirilmayapti. Masalan, 2024-yilda Navoiy, Qoraqalpog‘iston va Buxoro viloyatlarida rejadagi o‘rmon ekish ko‘rsatkichlari 40–60% atrofida bajarilgan.	O‘rmon xo‘jaligi agentligi faoliyatini o‘rganish natijasida agentlik faoliyatidagi mavjud tizimli muammo va kamchiliklarni aniqlash, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish o‘rmon xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvi va nazorat mexanizmlarini kuchaytiriladi.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
	usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va "Lex.uz"ga joylashtirish hamda agentlik uchun ish yuritishga doir namunaviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish. Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.					
4. (17)	O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligining Navoiy viloyat hududiy tuzilmalari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish	avgust-sentabr	J.Ravshanov, A.Tuxtayev, M.Umerzakov, J.Muhammadiyev, S.Xusanov, A.Saidov, A.Raxmonberdiyev,	Agentlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlar mavjudligi holatlari uchramoqda.	Agentlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyati; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Agentlikning funksiyalarini biznes jarayonlarini reinjining qilish (BPR) usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va "Lex.uz"ga joylashtirish hamda agentlik uchun ish yuritishga doir namunaviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish. Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.					
5. (19)	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining Navoiy viloyat boshqarmasi va tuman (shahar) bo'limlari faoliyatida o'rganish	sentabr-oktabr	J.Ravshanov, A.Tuxtayev, M.Umerzakov, J.Muhammadiyev, S.Xusanov, A.Saidov,	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining Navoiy viloyat boshqarmasi tomonidan aholining sanitariya-gigiyena talablari, epidemiyaga qarshi choralar,	Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining Navoiy viloyat boshqarmasi faoliyatini	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyati; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Qo'mitaning funksiyalarini biznes jarayonlarini reinjiniring qilish (BPR) usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va "Lex.uz"ga joylashtirish hamda agentlik uchun ish yuritishga doir		A.Raxmonberdiyev, tuman (shahar) adliya bo'limlari	oziq-ovqat xavfsizligi va infeksiyon kasalliklar profilaktikasi borasida amalga oshirilayotgan nazorat faoliyati huquqiy jihatdan yetarli darajada barqaror va samarali emasligi kuzatilmoqda. Profilaktika va gigiyenaga oid targ'ibot materiallari eskicha, yetarli interaktivlik yo'q, sanitariya holati, epidemiologik holat, infeksiya tarqalishi bo'yicha yagona va to'liq ma'lumot bazasi mavjud emas	o'rganish natijasida: sanitariya-gigiyena va jamoat salomatligi sohasida amaldagi huquqni qo'llash amaliyotida muammolar bartaraf etiladi; huquqiy hujjatlardagi eskirgan yoki zamonaviy ehtiyojlarga javob bermaydigan normalarni qayta ko'rib chiqiladi; sohada yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish hamda ma'sul organlar vakolatlari va mas'uliyatini aniq belgilash; jamiyat sog'liqni saqlash tizimi va fuqarolar sog'lig'ini saqlash masalalari bo'yicha idoralararo hamkorlikni rivojlantirish;	

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	namunaviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish. Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.					
6. (25)	O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining Navoiy viloyat va tuman (shahar) hududiy tuzilmalari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyati; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Vazirlikning funksiyalarini biznes jarayonlarini reinjiniring qilish (BPR)	oktabr	J.Ravshanov, A.Tuxtayev, M.Umerzakov, J.Muhammadiyev, S.Xusanov, A.Saidov, A.Raxmonberdiyev, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Vazirlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlar mavjudligi holatlari uchramoqda.	Vazirlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo’yicha takliflar ishlab chiqish; huquqni qo’llash amaliyotida uchrayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo’yicha uslubiy qo’llanmalar ishlab chiqish va “Lex.uz”ga joylashtirish hamda agentlik uchun ish yuritishga doir namunaviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish. Natijasi bo’yicha tegishli chora ko’rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma’lumotnoma kiritish.					
7.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari ijrosini tashkil etish tartibi to’g’risidagi vaqtinchalik nizomga muvofiq “Ijro.gov.uz” tizimiga (keyingi o‘rinlarda – tizim) kiritilgan ma’lumotlarning to‘liqligi va haqqoniyligini tekshirish, bajarilmagan va muddati kechiktirilib bajarilgan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar tahlili va hisobini yuritish hamda	oktabr	A.Tuxtayev	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari ijrosini tashkil etish tartibi to’g’risidagi vaqtinchalik nizomda “Ijro.gov.uz” tizimi yuritish bo’yicha hududiy adliya organlari vazifalari belgilangan	mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan topshiriq ijrosi bo’yicha “Ijro.gov.uz” tizimiga (keyingi o‘rinlarda – tizim) kiritilgan ma’lumotlarning to‘liqligi va haqqoniyligini tekshirish, bajarilmagan va muddati kechiktirilib bajarilgan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar tahlili va hisobini yuritish hamda mas’ul ijrochilarga huquqiy-uslubiy ko‘maklashish.	1

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
	mas’ul ijrochilarga huquqiy-uslubiy ko‘maklashish. Natijasi yuzasidan Adliya vazirligi va Navoiy viloyat hokimligiga axborot xat kiritish.					
8. (27)	Ko‘p qavatli uylarga tutash hududlarni boshqaruv kompaniyalariga berish bo‘yicha hokimlarning qarorlarini o‘rganish hamda qonunga zid ravishda qabul qilingan qarorlarni bekor qilish choralarini ko‘rish.	noyabr	J.Ravshanov, tuman (shahar) adliya bo‘limlari	Davlat Rahbari tomonidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida sport maydonchalari va bolalar o‘yingohlari, uylar orasidagi yashil hududlar qurilish uchun berib yuborilayotganidan odamlar noroziligi tandiq qilingan. Shuningdek, barcha ko‘p qavatli uylarga tutash hududlarni boshqaruv kompaniyalariga biriktirib berish bo‘yicha topshiriq berilganligi, biroq, Toshkent shahar hokimining 2025-yil 5-maydagi qarori bilan 9 802 ta ko‘p qavatli uylarning faqatgina bino ostidagi yerlari kadastr bilan biriktirilganligi yuzasidan e’tiroz bildirilgan.	Hokimlar tomonidan ko‘p qavatli uylarga tutash hududlarni boshqaruv kompaniyalariga berish bo‘yicha qonunchilikka zid ravishda qabul qilingan qarorlarni bekor qilish.	3
9. (28)	Yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini aniqlash, o‘rganish va hal etish, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar ongida qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish maqsadida “Bolalar va yoshlarning huquqlarini	noyabr	M.Umerzakov, S.Xusanov, tuman (shahar) adliya bo‘limlari	Yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini aniqlash, o‘rganish hamda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar ongida qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish bugungi kunda muhim	Yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini aniqlash, o‘rganish, tahlil qilish va hal etish, jamiyatda yoshlar rolini oshirish hamda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy	4

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
	himoya qilish” huquqiy aksiyasini o‘tkazish. Natijasi bo‘yicha Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma’lumotnoma kiritish.			ahamiyatga ega hisoblanadi Ushbu “huquqiy ko‘mak” aksiyasini tashkil etish orqali bolalar va yoshlarning huquqlari kafolatlari ta’minlanishi yanada kuchaytiriladi.	madaniyatini oshirish, yoshlar ongida qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish va ularning milliy vatanparvarlik tuyg‘ularini yanada kuchaytirish hisoblanadi.	
III. HUQUQIY XIZMATLAR VA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR SOHASIDA						
10.	Qiziltepa tumanidagi “HIMOYA EN” advokatlik firmasi va “LIDER BOZOROVA” advokatlik byurosi, Karmana tumanidagi “ADVOCATE KH-KULBAYEV”, Navbahor tumanidagi “ADVOKAT M-XALILOVA”, Navoiy shahridagi “BAXS SAYFULLA QUDRATOVICH” advokatlik byurolari tomonidan advokatura to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga, shu jumladan, litsenziya talablari va shartlariga rioya qilinishi ahvolini o‘rganish. Natijasi yuzasidan tegishli choralar qo‘llab, tahliliy ma’lumotnoma tayyorlash va rahbariyatga kiritish.	iyul- noyabr	F.Alxamov, O.Djurayeva	Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi 432-son qarori bilan tasdiqlangan Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomning 40-bandida adliya organi advokat tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilishi belgilangan. Mazkur advokatlik tuzilmalari faoliyati oxirgi uch yilda o‘rganilmagan.	Aholiga sifatli huquqiy xizmat ko‘rsatilishini ta’minlash.	4
11.	Quyidagi xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarning faoliyatida notariat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tekshirish:		F.Alxamov, O.Djurayeva	Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-iyuldagi 464-son qarori bilan tasdiqlangan “Notariat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga notariuslar tomonidan rioya etilishi ustidan	Notariuslar tomonidan amalga oshirilayotgan notarial harakatlarning qonuniyligini o‘rganish. O‘rganish natijalari	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
	Qiziltepa tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius T.Ergashev; Karmana tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Sh.Gulimova; Navoiy shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius A.Jo‘rayev; Navoiy shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius F.Tursunov; Navoiy shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Sh.Maxamov;	iyul sentabr oktabr noyabr dekabr		nazorat qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 12-bandiga asosan notariuslar ish faoliyatida rejali tekshirish uch yilda bir marta o‘tkazilishi belgilangan. Mazkur xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar faoliyati oxirgi uch yilda tekshirilmagan.	yuzasidan belgilangan ta’sir choralarini ko‘rish va aholiga sifatli notarial xizmatlarning ko‘rsatilishini ta’minlash.	
12. (32)	Notariuslar tomonidan: 2024-yil hamda 2025-yilning 1-yarim yilligi davomida notariuslar tomonidan ko‘chmas mulk va avtomototransport vositasi oldi-sotdi shartnomalarini rasmiylashtirishda mol-mulklarga nisbatan taqiq va xatlovlar mavjudligini tekshirish holatlarini; 2022-2024-yillar hamda 2025- yilning 1-yarim yilligi davomida notariuslar tomonidan merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma berish holatlarini o‘rganish. Natijasi yuzasidan tegishli choralar qo‘llab, tahliliy ma’lumotnoma	avgust oktabr	F.Alxamov, O.Djurayeva	Notariuslar tomonidan mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazish bilan bog‘liq notarial harakatlar rasmiylashtirilganda “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali mol-mulklarga taqiq va xatlovlar tekshirilishi lozim. Shuningdek, merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma berish holatlari 2019-2021-yillarda tahlil qilingan bo‘lib, so‘nggi uch yil mobaynida notariuslar tomonidan merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma berish holatlarini o‘rganish zarurati mavjud.	Notariuslar tomonidan notariat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi, shu jumladan, notariuslar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, notarial harakatlar maxfiylikiga va notarius qasamyodiga rioya qilinish holatini o‘rganish.	1

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash
	tayyorlash va rahbariyatga kiritish.					
13	Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan 2024-yilda mahalliy hamda xorijiy grant mablag‘laridan oqilona va maqsadli foydalanilishi bo‘yicha monitoring o‘tkazish. Natijasi yuzasidan tegishli choralar qo‘llab, tahliliy ma’lumotnoma tayyorlash va rahbariyatga kiritish.	avgust-sentabr	M.Mamatqulov	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risidagi nizomning 12-bandiga muvofiq nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlarning faoliyati ustidan monitoring olib borish adliya organlarining vazifalaridan biri etib belgilangan.	Grant loyihalarining moliyaviy-tahliliy hisobotlarini to‘liq monitoring qilish natijasida ajratilgan mablag‘larning sarflanganlik holatini aniqlash.	1
14.	Navoiy viloyat “IMXO” xotin-qizlar markazi, “Saodat sari” ijtimoiy ko‘mak markazi, “Ravshan” sport klubi faoliyatini o‘rganish. Natijasi yuzasidan tegishli choralar qo‘llab, tahliliy ma’lumotnoma tayyorlash va rahbariyatga kiritish.	avgust-noyabr	M.Mamatqulov	Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-avgustdagi 635-son qarori bilan tasdiqlangan “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini adliya organlari tomonidan monitoring qilish va o‘rganish tartibi to‘g‘risida”gi nizomda adliya organlarining ish rejalariga asosan nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini o‘rganish nazarda tutilgan. Mazkur tashkilotlar faoliyatida oxirgi uch yilda o‘rganish o‘tkazilmagan.	Mazkur nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatida qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi ahvolini o‘rganish, yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish, diniy tashkilotlar faoliyati bilan bog‘liq qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	2
15.	Navoiy shahar “Baxoiy” diniy jamoasi, “Oktosh” jome masjidi; Navbahor tumani “Xujaibog‘dod” jome masjidi, “Shayx Abul Xasan Harakoniy”	sentabr-dekabr	M.Mamatqulov	Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-avgustdagi 635-son qarori bilan tasdiqlangan “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini adliya	Mazkur diniy tashkilotlarning faoliyatida qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi ahvolini o‘rganish,	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
	masjidi, Qiziltepa tumani “Qiziltepa” masjidi faoliyatini o’rganish. Natijasi yuzasidan tegishli choralar qo’llab, tahliliy ma’lumotnoma tayyorlash va rahbariyatga kiritish.			organlari tomonidan monitoring qilish va o’rganish tartibi to’g’risida”gi nizomda adliya organlarining ish rejalariga asosan nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini o’rganish nazarda tutilgan. Mazkur tashkilotlar faoliyatida oxirgi uch yilda o’rganish o’tkazilmagan.	yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ko’rish, diniy tashkilotlar faoliyati bilan bog’liq qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	
IV. DAVLAT XIZMATLARI VA FHDY SOHASIDA						
16.	FHDY bo’limlari tomonidan yolg’iz ona arizasi asosida tug’ilishni qayd etish yuzasidan huquqni qo’llash amaliyotini tahlil qilish. Natijasi yuzasidan tegishli choralar qo’llab, tahliliy ma’lumotnoma tayyorlash va rahbariyatga kiritish.	iyul	U.Xatamov M.Abdukarimova	Mazkur sohada FHDY bo’limlari faoliyatida huquqni qo’llash amaliyoti yuzasidan umumlashtirish o’tkazilmagan.	Mazkur sohalarda qonunchilikka rioya etilishini ta’minlash hamda huquqni qo’llash amaliyotidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish.	3
17.	Tuman (shahar) adliya bo’limlari DXMlari faoliyatida yuridik va jismoniy shaxslarning davlat ro’yxatidan o’tishi, qayta ro’yxatdan o’tishi hamda qayta tashkil etilishi bilan bog’liq holatlarni tekshirish va uning natijalarini hay’at majlisida muhokama qilish.	avgust-sentabr	U.Xatamov M.Abdukarimova	O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-fevraldagi “O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro’yxatidan o’tkazish va hisobga qo’yish tizimini takomillashtirish to’g’risida” 2016-yil 28-oktabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 66-sonli hamda	Mazkur sohalarda qonunchilikka rioya etilishini ta’minlash hamda huquqni qo’llash amaliyotidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
				2022-yil 28-sentyabrdagi “Tadbirkorlik subyektlari bo‘lmagan ayrim yuridik shaxslarni tashkil etish va tugatishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 542-son qarorlari ijrosi yuzasidan markazlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar holatini monitoring qilish.		
18.	Quyidagi FHDY organlari faoliyatini kompleks tekshirish va natijasini hay’at majlisida muhokama qilish. Qiziltepa tumani FHDY bo‘limi Nurota tumani FHDY bo‘limi Navoiy shahri FHDY bo‘limi Karmana tumani FHDY bo‘limi	avgust sentabr oktabr noyabr	U.Xatamov M.Abdukarimova	Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktabrdagi 550-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari”ning 222-bandida hududiy adliya organlari har yili FHDY organlarining faoliyatini tekshirishi lozimligi belgilangan.	FHDY organlari tomonidan amaldagi qonunchilik normalarining to‘g‘ri qo‘llanilishi va fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlarini qayd etish jarayonida xatolikka yo‘l qo‘yishning oldini olish	3
19.	Navoiy viloyat qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi tomonidan ma’muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va Davlat xizmatlari yagona reyestrda nazarda tutilgan xizmatlar bo‘yicha davlat xizmati ko‘rsatish holatini o‘rganish. Natijasi yuzasidan tegishli choralar qo‘llab, tahliliy ma’lumotnoma tayyorlash va rahbariyatga kiritish.	avgust-sentabr	J.Muhammadiyev	Mazkur sohada oxirgi uch yillikda o‘rganish va monitoring o‘tkazilmagan.	Viloyat qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi tomonidan davlat xizmatlari ko‘rsatish jarayonida qonuniylilikni ta’minlash.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
20.	Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 71-son qaroriga asosan davlat xizmatlari ko‘rsatilishi ahvolini o‘rganish. Natijasi yuzasidan tegishli choralar qo‘llab, tahliliy ma’lumotnoma tayyorlash va rahbariyatga kiritish.	oktabr- noyabr	J.Muhammadiyev, tuman (shahar) adliya bo‘limlari	Mazkur sohada oxirgi uch yillikda o‘rganish va monitoring o‘tkazilmagan.	Vakolatli organlari tomonidan tomonidan davlat xizmatlari ko‘rsatish jarayonida qonuniylikni ta’minlash.	3

V.YURIDIK XIZMAT VA INTELLEKTUAL MULK SOHASIDA

21.	Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan tashkilotlarda Mehnat kodeksi normalarini amaliyotga tatbiq etish masalalari yuzasidan seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish.	sentabr	A.Saidov, tuman (shahar) adliya bo‘limlari	Mehnat kodeksi normalarini qo‘llash bo‘yicha yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan tashkilotlarda Mehnat kodeksi normalarini amaliyotga tatbiq etish yuzasidan yagona amaliyotni shakllantirish.	Tashkilotlar xodimlarining bilim saviyasini oshirish orqali hujjatlarni qonuniy va sifatli qabul qilinishiga erishish.	2
22. (54)	Butunjahon intellektual mulk tashkilotining mualliflik huquqi bo‘yicha shartnomasi (Jeneva, 1996-yil 20-dekabr) bo‘yicha majburiyatlarning O‘zbekiston Respublikasida bajarilishi yuzasidan monitoring o‘tkazish hamda tahliliy ma’lumotnoma tayyorlash va rahbariyatga kiritish.	oktabr	A.Raxmonberdiyev	O‘zbekiston Respublikasi ushbu xalqaro shartnomaga 2019-yilda qo‘shilgan bo‘lib, hozirgi kunga qadar majburiyatlar bajarilishi holati o‘rganilmagan.	Xalqaro shartnoma bo‘yicha belgilangan majburiyatlar bajarilishini o‘rganish hamda mualliflik huquqi obyektlarini internet axborot makonida himoyasini ta’minlash	2

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash
VI. HUQUQIY AXBOROT SOHASIDA						
23. (2)	“Men Vatanimning yuziman” nomli targ‘ibot kampaniyasini tashkil etish.	iyul- noyabr	S.Xusanov, tuman (shahar) adliya bo‘limlari	So‘nggi davrda chet elda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan ko‘plab turli darajadagi huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Huquqbuzarliklarni yuzaga kelishiga sabab bo‘layotgan omillar sifatida xorijiy mamlakatlarning qonunlari va madaniy qoidalarini yetarlicha bilmasligi, iqtisodiy omillar, oilaviy nazoratning zaifligi, radikallashuv va siyosiy omillarni ko‘rsatishimiz mumkin.	Axloqiy, madaniy va huquqiy bilimlarni oshirish orqali xorijdagi salbiy hodisalarni kamaytirish. Turizm va mehnat migratsiyasi sohalarida milliy brendingni mustahkamlash.	4
24. (30)	“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – mamlakat taraqqiyoti va farovonligining huquqiy kafolati” shiori ostida “tengdosh-tengdoshga” tamoyili ostidagi targ‘ibot poyezdi loyihasini tashkil etish.	noyabr	S.Xusanov, tuman (shahar) adliya bo‘limlari	Mamlakatimiz yoshlari aksariyat hollarda o‘zlarining konstitutsiyaviy huquq va burchlarini to‘laonli bilmasligi holatlari uchraydi. Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish hamda aholining huquqiy ong va madaniyatini oshirish maqsadida targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish lozim.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini yoshlarga yetkazish.	4

Ish rejada belgilangan tadbirlarni baholash yo‘nalishlari va mezonlari jadvali

Yo‘nalish raqami	Baholanayotgan yo‘nalish nomi	Yo‘nalishning baholash mezonlari	Mezonni belgilash uchun taqqoslanuvchi ko‘rsatkichlar	Mezon bo‘yicha maksimal bali	Yo‘nalish bali
1.	Adliya organlari va muassasalari faoliyatini tahlil qilish	Faoliyati baholanganligi	<i>Adliya organlari soni bilan baholangan Adliya organlar soni</i>	50	100
		Tizimli tahlil amalga oshirilganligi	<i>tahlil soni bilan tizimli amalga oshirilgan tahlil soni</i>	25	
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	25	
2.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi, tahliliy ma’lumot va boshqa takliflar	Taklifning asoslanganligi	<i>loyihada nazarda tutilgan jami qismlar bilan loyihaning NHH va faktlar bilan asoslangan qismlari</i>	25	100
		Taklifda muammoni tizimli va asl sabablarini bartaraf qilish nazarda tutilganligi	<i>Loyiha soni bilan loyihada tizimli va asl sabablarini bartaraf qilish nazarda tutilganligi</i>	25	
		Taklif bo‘yicha asoslantirishda taklif amaliyotga kiritilgandan so‘ng kutilayotgan ijobiy natija aks etganligi	<i>Loyiha soni bilan loyihada kutilayotgan ijobiy natija (foiz, miqdor va boshqalarda) nazarda tutilganligi</i>	25	
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	25	
3.	Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish (tekshirish, o‘rganish, monitoring va boshqalar) natijasida ta’sir choralar ko‘rish	O‘rganish qamrovi	<i>savolnomadagi band soni bilan ularning har bir bo‘yicha asoslar soni</i>	20	100
		Qonunbuzilishning asoslanganligi	<i>qonun buzilishlar soni bilan NHH va faktlarga asoslangan qonunbuzilishlar soni</i>	20	
		Qonunbuzilishni bartaraf qilinganligi	<i>bartaraf qilinishi lozim bo‘lgan qonunbuzilishlar soni bilan ularning bartaraf qilinganlari soni</i>	20	
		Javobgarlik choralari qo‘llanilishi	<i>Javobgarlik tortilishi lozim bo‘lgan shaxslar soni bilan javobgarlikka tortilgan shaxslar soni</i>	20	
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	20	
4.	Ko‘rsatkichlar va vazifalar bajarilganligi	Ko‘rsatkichlar-vazifalar bajarilganligi	<i>Normativ va ichki hujjatlar hamda rejadagi ko‘rsatkichlar bilan bajarilgan ko‘rsatkichlar miqdori</i>	75	100
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	25	

Izoh: * Ish rejada nazarda tutilgan tadbirlar adliya boshqarmasining mavjud bino, moliyaviy mablag‘lari va moddiy-tekni vositalari doirasida amalga oshiriladi. Alohida resurslar talab qilinmaydi.

** Ish rejada belgilangan tadbirlar mazkur reja ilovasidagi jadvalga muvofiq tegishli baholash yo‘nalishi (raqami) bo‘yicha baholanadi. Mezon balini aniqlash ikkinchi ko‘rsatkichni (amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha ko‘rsatkich miqdorini) mezon bo‘yicha maksimal ballga ko‘paytirish, mazkur natijani birinchi ko‘rsatkichga bo‘lish orqali amalga oshiriladi. Bunda, agar ikkinchi ko‘rsatkich birinchi ko‘rsatkichdan katta bo‘lsa, ikkinchi ko‘rsatkich miqdori birinchi ko‘rsatkichga teng qilib olinadi.

**Tuman (shahar) adliya bo'limlarining 2025-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan
ISH REJASI**

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash**
I. ISHLARNI TASHKILLASHTIRISH, ADLIYA ORGANLARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH SOHASIDA						
1. (1)	Tuman (shahar) adliya bo'limlari tomonidan 2025-yil I yarim yillik va 2025-yilning 9 oyi davomida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va kelgusidagi vazifalarni belgilash.	iyul-avgust, oktabr-noyabr	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-oktabrdagi 855-son qaroriga ko'ra hay'at majlisi har chorakda o'tkazilib, unda asosiy yo'nalishlariga oid masalalar muhokama etiladi va kelgusidagi vazifalar belgilanadi.	Boshqarma va uning tizimidagi idoralar faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash hamda tizimli qonun buzilish holatlarini bartaraf etish.	1
II. HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTINI O'RGANISH VA METODIK TA'MINLASH, INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH, PREZIDENT HUJJATLARI IJROSINI NAZORAT QILISH SOHASIDA						
2. (2)	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilishga qaratilgan "huquqiy ko'mak" aksiyasini o'tkazish. Natijasi bo'yicha Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	avgust	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga nisbatan qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va kafolatlarning qo'llanmaslik holatlari bo'yicha tegishli murojaatlar kelib tushmoqda. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo'nalishida "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish orqali ularning huquqlari kafolatlari	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo'nalishida qonunchilik hujjatlari ijrosi holati va amaliyoti o'rganiladi, muammosi mavjud shaxslarga amaliy ko'mak ko'rsatiladi hamda aniqlangan muammo va kamchiliklar bartaraf etilib, sohani takomillashtirishga	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash**
				ta'minlanishi kuchaytiriladi.	qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.	
3. (3)	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi agentligining tuman (shahar) hududiy tuzilmalari faoliyatida faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyati; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish.	avgust-sentabr	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Bugungi kunda o'rmonlarning kamayib borishi va tabiiy tiklanish sur'atining pastligi, davlat o'rmon fondi yerlarida noqonuniy kesish, o'rmon xo'jaligi ko'chatzorlarining yetarli rivojlanmaslik holatlari mavjud. 2030-yilgacha 1,7 mln gektar yerda o'rmonzorlar tashkil etish bo'yicha Prezident qarori mavjud bo'lsa-da, ayrim hududlarda rejalashtirilgan ishlar amalga oshirilmayapti. Masalan, 2024-yilda Navoiy, Qoraqalpog'iston va Buxoro viloyatlarida rejadagi o'rmon ekish ko'rsatkichlari 40–60% atrofida bajarilgan.	O'rmon xo'jaligi agentligi faoliyatini o'rganish natijasida agentlik faoliyatidagi mavjud tizimli muammo va kamchiliklarni aniqlash, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish o'rmon xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi va nazorat mexanizmlarini kuchaytiriladi.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
	Agentlikning funksiyalarini biznes jarayonlarini reinjining qilish (BPR) usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va "Lex.uz"ga joylashtirish hamda agentlik uchun ish yuritishga doir namunaviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish. Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.					
4. (5)	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining tuman (shahar) bo'limlari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi;	sentabr-oktabr	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi tomonidan aholining sanitariya-gigiyena talablari, epidemiyaga qarshi choralar, oziq-ovqat xavfsizligi va infeksiyon kasalliklar profilaktikasi borasida amalga oshirilayotgan nazorat faoliyati huquqiy jihatdan yetarli darajada barqaror va samarali emasligi kuzatilmoqda. Profilaktika va gigiyenaga oid targ'ibot materiallari eskicha, yetarli	Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi faoliyatini o'rganish natijasida: sanitariya-gigiyena va jamoat salomatligi sohasida amaldagi huquqni qo'llash amaliyotida muammolar bartaraf etiladi; huquqiy hujjatlardagi eskirgan yoki zamonaviy	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
	inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyati; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Qo'mitaning funksiyalarini biznes jarayonlarini reinjining qilish (BPR) usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va "Lex.uz"ga joylashtirish hamda agentlik uchun ish yuritishga doir namunaviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish. Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.			interaktivlik yo'q, sanitariya holati, epidemiologik holat, infeksiya tarqalishi bo'yicha yagona va to'liq ma'lumot bazasi mavjud emas	ehtiyojlarga javob bermaydigan normalarni qayta ko'rib chiqiladi; sohada yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish hamda ma'sul organlar vakolatlari va mas'uliyatini aniq belgilash; jamiyat sog'liqni saqlash tizimi va fuqarolar sog'lig'ini saqlash masalalari bo'yicha idoralararo hamkorlikni rivojlantirish;	

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
5. (6)	O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining tuman (shahar) hududiy tuzilmalari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyati; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Vazirlikning funksiyalarini biznes jarayonlarini reinjining qilish (BPR) usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;	oktabr	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Vazirlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlar mavjudligi holatlari uchramoqda.	Vazirlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
	huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va "Lex.uz"ga joylashtirish hamda agentlik uchun ish yuritishga doir namunaviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish. Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.					
6. (8)	Ko'p qavatli uylarga tutash hududlarni boshqaruv kompaniyalariga berish bo'yicha hokimlarning qarorlarini o'rganish hamda qonunga zid ravishda qabul qilingan qarorlarni bekor qilish choralarini ko'rish.	noyabr	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Davlat Rahbari tomonidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida sport maydonchalari va bolalar o'yingohlari, uylar orasidagi yashil hududlar qurilish uchun berib yuborilayotganidan odamlar noroziligi tandiq qilingan. Shuningdek, barcha ko'p qavatli uylarga tutash hududlarni boshqaruv kompaniyalariga biriktirib berish bo'yicha topshiriq berilganligi, biroq, Toshkent shahar hokimining 2025-yil 5-maydagi qarori bilan 9 802 ta ko'p qavatli uylarning faqatgina bino ostidagi yerlari kadastr bilan biriktirilganligi yuzasidan e'tiroz bildirilgan.	Hokimlar tomonidan ko'p qavatli uylarga tutash hududlarni boshqaruv kompaniyalariga berish bo'yicha qonunchilikka zid ravishda qabul qilingan qarorlarni bekor qilish.	3

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash**
7. (9)	Yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini aniqlash, o'rganish va hal etish, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar ongida qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish maqsadida "Bolalar va yoshlarning huquqlarini himoya qilish" huquqiy aksiyasini o'tkazish. Natijasi bo'yicha Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	noyabr	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini aniqlash, o'rganish hamda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar ongida qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi Ushbu "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish orqali bolalar va yoshlarning huquqlari kafolatlari ta'minlanishi yanada kuchaytiriladi.	Yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini aniqlash, o'rganish, tahlil qilish va hal etish, jamiyatda yoshlar rolini oshirish hamda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar ongida qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish va ularning milliy vatanparvarlik tuyg'ularini yanada kuchaytirish hisoblanadi.	3

III. DAVLAT XIZMATLARI VA FHDY SOHASIDA

8. (20)	Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiy lashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 71-son qaroriga asosan davlat xizmatlari ko'rsatilishi ahvolini o'rganish. Natijasi yuzasidan tegishli choralar qo'llab, tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash va rahbariyatga kiritish.	oktabr- noyabr	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Mazkur sohada oxirgi uch yillikda o'rganish va monitoring o'tkazilmagan.	Vakolatli organlari tomonidan tomonidan davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonida qonuniylikni ta'minlash.	3
--------------------	---	-------------------	----------------------------------	--	--	---

IV. YURIDIK XIZMATLAR VA INTELLEKTUAL MULK SOHASIDA

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
9. (21)	Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlarda Mehnat kodeksi normalarini amaliyotga tatbiq etish masalalari yuzasidan seminar mashg'ulotlarini tashkil etish.	sentabr	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Mehnat kodeksi normalarini qo'llash bo'yicha yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlarda Mehnat kodeksi normalarini amaliyotga tatbiq etish yuzasidan yagona amaliyotni shakllantirish.	Tashkilotlar xodimlarining bilim saviyasini oshirish orqali hujjatlarni qonuniy va sifatli qabul qilinishiga erishish.	2
VI. HUQUQIY AXBOROT SOHASIDA						
10. (23).	“Men Vatanimning yuziman” nomli targ'ibot kampaniyasini tashkil etish.	iyul- noyabr	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	So'nggi davrda chet elda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan ko'plab turli darajadagi huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Huquqbuzarliklarni yuzaga kelishiga sabab bo'layotgan omillar sifatida xorijiy mamlakatlarning qonunlari va madaniy qoidalarini yetarlicha bilmasligi, iqtisodiy omillar, oilaviy nazoratning zaifligi, radikallashuv va siyosiy omillarni ko'rsatishimiz mumkin.	Axloqiy, madaniy va huquqiy bilimlarni oshirish orqali xorijdagi salbiy hodisalarni kamaytirish. Turizm va mehnat migratsiyasi sohalarida milliy brendingni mustahkamlash.	4
11. (24).	“O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – mamlakat taraqqiyoti va farovonligining huquqiy kafolati” shiori ostida “tengdosh-tengdoshga” tamoyili ostidagi targ'ibot poyezdi loyihasini tashkil etish.	noyabr	Tuman (shahar) adliya bo'limlari	Mamlakatimiz yoshlari aksariyat hollarda o'zlarining konstitutsiyaviy huquq va burchlarini to'laqonli bilmasligi holatlari uchraydi. Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish hamda aholining huquqiy ong va	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini yoshlarga yetkazish.	4

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad <i>(kutilayotgan natija)</i>	Baho- lash**
				madaniyatini oshirish maqsadida targ'ibot tadbirlarini tashkil etish lozim.		